

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND
FILIALI



Darsdan tashqari ommaviy sport sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish moduli

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

O‘qituvchi: Kobilov Sobir Donaqulovich

1-Mavzu. Darsdan tashqari ommaviy sport sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishning maqsadi, vazifalari, mazmuni va shakllari

Reja:

- 1.1. Darsdan va maktabdan tashqari ommaviy sport sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishning maqsadi, vazifalari, mazmuni va shakllari**
- 1.2. Aholi jismoniy tayyorgarligi darajasini baholash**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDAGI QONUN O'RQ-653-son 03.12.2020-yil


8-modda ikkinchi qismining o'n to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etildi: “sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etadi hamda o'tkazadi, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etadi”



10-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etildi: “jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda ishtirok etadi”

32-moddaning birinchi qismidagi “ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlari” degan so'zlar “olimpiya zaxiralari kollejlari” degan so'zlar bilan almashtirildi

Modulning maqsadi: Umumiylar
o‘rtalim muassasalarini jismoniy
tarbiya fani o‘qituvchilarining
darsdan tashqari ommaviy sport
sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil
etish va uni yuqori saviyada
o‘tkazish bo‘yicha nazariy bilimlarni
egallash va uni amalda qo‘llay
bilish, sohadagi ilg‘or tajribalar,
zamonaviy bilim va malakalarni
o‘zlashtirish va amaliyatga joriy
etishlari uchun zarur bo‘ladigan
kasbiy bilim, ko‘nikma va
malakalarini takomillashtirish,
shuningdek ularning ijodiy faolligini
rivojlantirishdan iborat



Maqsadni amalgaga oshirish uchun mazkur modul
bo‘yicha o‘quv materiali mazmuni har xil metod
va tamoyillardan foydalanish, ularni tadbiq etish
qoidalarni va uslublarni, harakat ko‘nikma va
malakalarga mustaqil tayyorlanishni, jismoniy
tarbiya nazariyasi va uslubiyati fani atamalaridan
to‘g‘ri foydalana olishga o‘rgatish



“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishida
jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning zamonaviy
kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini
takomillashtirish va rivojlantirish

Darsdan va maktabdan tashqari tashqari ommaviy sport sog‘lomlashtirish tadbirlarining shakllari



**Darsgacha o‘tkaziladigan
gimnastika mashqlari**



**Katta tanaffusdagi harakatli
o‘yinlar**



Ishlab chiqarish gimnastikasi



**Sport klublarida sport turlari
bo‘yicha tugaraklar**

Sport musobaqalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil 16-iyundagi PQ-5148-sun qarori qabul qilindi



PQ-5148-sun qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 15-yanvarda 23-son qarori qabul qilindi



Ushbu qarorga ko‘ra sport sinovlari ixtiyoriy va maxsus talablardan iborat

1.Ixtiyoriy talablar murakkablik darjasini asosida quyidagi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan



tezlik va kuchlanish imkoniyatlarining rivojlanish darjasni



harakatlarni muvofiqlashtiruvchi qobiliyatining rivojlanish darjasni



egallagan amaliy ko‘nikmalarining rivojlanish darjasni



chidamlilik imkoniyatlarining rivojlanish darjasni;



kuch imkoniyatlarining rivojlanish darjasni



egiluvchanlik imkoniyatlarining rivojlanish darjasni



tezlik imkoniyatlarining rivojlanish darjasni

Sport sinovlari quyidagi 11 ta yosh toifasidagi guruhga bo‘linadi

1-guruh — 7-8 yosh;
2-guruh — 9-10 yosh;
3-guruh — 11-12 yosh;
4-guruh — 13 — 15 yosh;
5-guruh — 16-17 yosh;
6-guruh — 18 — 29 yosh;
7-guruh — 30 — 39 yosh;
8-guruh — 40 — 49 yosh;
9-guruh — 50 — 59 yosh;
10-guruh — 60 — 69
yosh;
11-guruh — 70 yosh
hamda undan katta
yoshdagi shaxslar

Sport sinovlari o‘tkazib
bo‘linganidan keyin maxsus
talablarni bajargan
ishtirokchilar natijalari
bo‘yicha bir oy muddat
ichida g‘olib va sovrindorlar
Respublika komissiyasining
I, II va III darajali “Jismoniy
tayyorgarlik darjasasi”
ko‘krak nishonlari bilan
taqdirlash hamda mos
o‘rniga va darajasiga qarab
tegishli sport toifalari va
unvonlari berilishi
to‘g‘risidagi qarori qabul
qilinadi

Maxsus talablarni bajargan
g‘olib va sovrindorlarni faxriy
yorliqlar, shuningdek, qimmatbaho
sovg‘alar bilan rag‘batlantirish tuman
(shahar) hududiy ishchi guruhlari
tomonidan tantanali ravishda tashkil
etiladi

Sport sinovlarining ixtiyoriy
talablarini bajargan
ishtirokchilarning yakuniy
natijalariga ko‘ra g‘olib va
sovrindorlarni musobaqalar tugashi
bilan faxriy yorliqlar, esdalik
sovg‘alari bilan rag‘batlantirish
hududiy ishchi guruhlar tomonidan
tantanali ravishda tashkil etiladi

Baholash tizimi
bo'yicha yosh
ko'rsatkichlaridan
kelib chiqib sport
sinovlarining
maxsus talablarini
muvaffaqiyatli
bajargan shaxslar
bir yil mobaynida
quyidagi imtiyozlar
va
rag'batlantirishlarda
n foydalanadi



safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat to'loving 50 foizini chegirma bilan
to'laydi va muddatli harbiy xizmatga birinchilar qatorida ustunlik bilan yuboriladi



maxsus talablarни bajargan g'oliblarga (I o'rinn) "Temurbeklar maktabi"ga test
sinovlarisiz tanlovdan tashqari o'qishga kirishda



bepul tarzda davlat tuman (shahar) ko'p tarmoqli tibbiyot muassasasida bir martalik
chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tadi



maxsus talablarни bajargan g'oliblarga (I o'rinn) umumiyl foydalanishdagi davlat
yo'lovchi tashish shahar transportida bepul hamda hududlararo harakatlanishda 50
foiz chegirmali to'lov bilan imtiyozli yurish huquqi beriladi (taksi, shu jumladan
yo'nalishli taxi mustasno)



farzandlari yashayotgan joydagi umumta'limg maktabi, maktabgacha ta'lim
tashkilotlari, shuningdek, yozgi sog'lomlashtirish oromgohlariga navbatsiz
joylashtiriladi



barcha davlat organlari va tashkilotlarining xodimlariga ish joyi hisobidan dam olish
maskanlari va sanatoriylarga bepul yo'llanmalar taqdim etiladi



respublika miqyosida ishga yoki o'qishga qabul qilinishida jismoniy tayyorgarlik
talab etiladigan imtiyon (oliy ta'lim muassasalari sport yo'nalishlaridan tashqari),
sinov, amaliy mashg'ulotlarda ustunlik (imtihindan maksimal ball yoki amaliy
mashg'ulotlardan ozod qilinishi) beriladi

**E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!**